

# **Polshadan bajarilayotgan maxsus reyslar haqida rasmiy ma'lumot**

**2022 28 February**

Ayrim ijtimoiy tarmoqlarda Ukrainadan evakuatsiya qilinayotgan O'zbekiston fuqarolarini mamlakatimizga olib kelish uchun tashkil etilayotgan maxsus aviareyslar uchun aviachiptalar sotilayotganligi to'g'risida yolg'on ma'lumotlar tarqatilmoqda.

Fuqarolardan shu kabi xabarlarga ishonmasliklarini, maxsus aviareyslar O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan bepul tashkil etilayotganligini ma'lum qilamiz. Hozirda Polshaning Katovitse shahridan "Uzbekistan Airways" AJ tomonidan bajarilayotgan maxsus aviaqatnovlar orqali O'zbekistonga olib kelinayotgan fuqarolardan aviachipta uchun hech qanday to'lov undirilmaydi.

Eslatib o'tamiz, Ukrainadagi O'zbekiston fuqarolarini evakuatsiya qilish hamda maxsus aviareyslar orqali mamlakatimizga jo'natish ishlari Tashqi ishlar vazirligi tomonidan muvofiqlashtirilmoqda.